

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/31.12.2020. Tar.60.01.-RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MA'RUF OV SHERZOD KOMIL O'G'LI

**SIRDARYO VILOYATINING QADIMGI VA O'RTA ASRLARDAGI
TARIXI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissyertation

Ma’rufov Sherzod Komil o‘g‘li

Sirdaryo viloyatining qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixi.....3

Маъруфов Шерзод Камил угли

История Сырдарьинской области в древности и средние века25

Marufov Sherzod Komil ugli

The History of the Syrdarya Region in Antiquity and the Middle Ages51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 56

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc. 03/31.12.2020. Tar.60.01.-RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

MA'RUF OV SHERZOD KOMIL O'G'LI

**SIRDARYO VILOYATINING QADIMGI VA O'RTA ASRLARDAGI
TARIXI**

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Tar1675 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qudratov Solijon Sulaymanovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Hasanov Mutalibjon
tarix fanlari doktori, professor

G'oyibov Bobur Sobirovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "28" "11" soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:170100, Andijon shahar, Universitet ko'chasi, 129-uy. Andijon davlat universitetining Tarix fakulteti, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz. Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2171,9 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Bosh bino. Tel.: (0374) 223-84-33; faks: (0374) 223-88-30).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "13" "11" kuni tarqatildi.
(2025-yil "12" "11" dagi 41 raqamli reyestr bayonnomasi)


R.T.Shamsutdinov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d.,
professor
M.O.Alixojiev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, t.f.n.,
dotsent
O.K.Komilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. XXI asrda sodir bo'lgan globallashuv jarayoni ta'sirida kishilik jamiyatining qadimgi davr tarixini, xususan, etnomadaniy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixini moddiy va yozma manbalar asosida o'rganish va ularni qayta tiklash muhim vazifalardan biriga aylangan. Shu sababli dunyoda tarixni moddiy manbalar asosida tarixiy rekonstruksiya qilishga e'tibor yanada kuchaygan. Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani singari Sirdaryo viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarda ham yangi izlanishlar olib borilib, ko'plab ilmiy yangiliklar e'lon qilinayotganligi mavzuning dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Jahondagi yetakchi universitetlar, tarix va arxeologiya markazlarida qadimgi xalqlarning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini o'rganishga qaratilgan mikrotarixiy tadqiqotlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda. Xususan, Oksford, Kembrij, Garvard, Tokio, Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Germaniyaning Mayns arxeologiya instituti hamda Parijdagi Sharq madaniyatlari markazi olimlari tomonidan yozma manbalar, arxeologik topilmalar va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida qadimgi aholi manzilgohlari, ularning xo'jalik tizimi, diniy e'tiqodlari, tili va madaniyatiga oid ilgari noma'lum bo'lgan ko'plab ma'lumotlar aniqlanmoqda.

Sirdaryo viloyati hududi qadimda va o'rta asrlarda "Buyuk ipak" yo'lining muhim qismida joylashgan bo'lgan. O'rta yer dengizidan chiqib, Buxoro va Samarqand orqali qadimgi Chin (Xitoy) sari yo'l olgan savdo karvonlari albatta ushbu hududdan o'tishgan. Shuningdek, qadim Choch (Toshkent)ga ham olib boruvchi savdo yo'llari ham aynan viloyat hududidan o'tgan. Shu asosda, viloyat hududi qadimda va o'rta asrlarda mamlakatimizning qadim o'lkalari – So'g'd (Samarqand), Dovon (Farg'ona) va Choch (Toshkent)larni bir-birlari bilan bog'lab turgan. Shu sababli Sirdaryo viloyati tarixini chuqur o'rganmasdan turib, u bilan chegaradosh qadimgi So'g'd, Farg'ona, Choch tarixini to'liq bilib bo'lmaydi. Zero, ular bir-birlari bilan Sirdaryo orqali bog'langan. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Sirdaryo viloyati garchi O'zbekiston tarkibidagi ma'muriy hudud sifatida ancha yosh bo'lsada, bu zaminning necha ming yillik tarixi, madaniyati bor"¹. Yuqoridagi hududlar tarixiga oid hanuz o'z yechimini topmayotgan ayrim muammolarni bizning nazarimizda, Sirdaryo tarixini o'rganish orqali yechish mumkin bo'ladi.

Respublikamiz hukumati tomonidan e'lon qilingan huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

¹ Мирзиёев Ш. Сахро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутқ) // Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 375–376.

to‘g‘risida”², 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi PQ-4068-son “Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan yaxshilash to‘g‘risidagi” Qarori³, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-fevraldagi 2789-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarida⁴ yuklatilgan vazifalarni bajarishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sirdaryo viloyati hududining arxeologik o‘rganilishini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin: 1) XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan 1991-yilgacha bo‘lgan, ya‘ni mustaqillik yillarigacha amalga oshirilgan izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar davri; 2) O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi davrda olib borilgan arxeologik izlanishlar.

Viloyat hududidagi qadimgi davr yodgorliklarini o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida havaskor kolleksionerlar va o‘lkashunos tadqiqotchilarning faoliyati bilan boshlangan. Ularning ishlarida bevosita arxeologik qazishmalar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, ayrim yodgorliklar, xususan, Eski Xovos haqida dastlabki ma‘lumotlar keltirilgan⁵. Ushbu tadqiqotchilarni ko‘proq Mirzacho‘l hududidagi sardobalar qiziqtirgan. Mashhur olim M.Ye.Masson mazkur sardobalarni maxsus o‘rganib, ular haqida batafsil ma‘lumot bergan. U, shuningdek, Xovos temir yo‘li yaqinidagi tepalikni o‘rta asrlardagi Eski Xovos bilan, xristianlarning Vinkerd qishlog‘ini esa viloyatdagi Nurota yodgorligi bilan qo‘nmlashtiradi⁶.

Viloyat hududidagi yodgorliklar ilmiy asosda XX asrning 40-yillaridan boshlab o‘rganila boshladi. 1956-yilda Ho‘jand–Ustrushona otryadi tomonidan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021> (Murojaat qilingan sana: 01.05.2021).

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ-4068-сон “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан яхшилаш тўғрисидаги” қарори [Электрон ресурс]. – URL: <https://lex.uz/docs/4262171?ONDATE=01.03.2022%2001> (Murojaat qilingan sana: 01.03.2022).

⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори [Электрон ресурс]. – URL: <https://lex.uz/docs/4524476> (Murojaat qilingan sana: 15.04.2025).

⁵ Лыкошин Н. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учреждения кружка любителей археологии. – Ташкент: Среднеазиатский вестник, 1896. – С. 9.

⁶ Массон М.Е. Проблема изучения цистерны – сардоба. – Ташкент, 1935. – С. 16–21.

Ho‘jamushkentsoy vodiysining yuqori qismida joylashgan bir qator yodgorliklar o‘rganilgan⁷. XX asrning 60-yillarida esa V.A. Nilsen tomonidan Nurota yodgorligida kichik hajmdagi arxeologik qazishmalar olib borilgan⁸. Keyinchalik, XX asrning 70-yillarida A.I. Bilolov Ustrushona hududining sug‘orish tarixini tadqiq etar ekan, Sirdaryo viloyatidagi bir necha yodgorliklarni ham o‘rganishga e‘tibor qaratgan⁹.

1970–1990-yillar mobaynida viloyat hududida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlari — R.A. Badahov¹⁰, U.A. Alimov¹¹, M.X. Pardayev¹², A.A. Gritsina¹³, L.M. Sverchkov¹⁴ va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, 1990-yilda A.A. Gritsina “Miloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalaridan XIII asr boshlarigacha Shimoliy Ustrushona (arxeologik-topografik tadqiqotlar)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Dissertatsiyada muallifning 1985–1990-yillar davomida viloyat hududida olib borgan arxeologik razvedka ishlari hamda Nurota, Kultepa, Eski Xovos va Qo‘shtepa yodgorliklaridagi qazishmalar natijalari asosida viloyat arxeologik yodgorliklarining ilk ilmiy xaritasi tuzilgan. Shuningdek, birinchi marotaba viloyatning ilk temir davridan rivojlangan o‘rta asrlargacha bo‘lgan tarixini yorituvchi arxeologik materiallar ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur tadqiqotlar natijasida yodgorliklar tizimli tavsiflangan, ularning davrlanishi aniqlangan, joylashuvi belgilangan hamda viloyat hududidan o‘tgan asosiy karvon yo‘llari haqida yangi ilmiy ma‘lumotlar taqdim etilgan¹⁵.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingi yillarda Sirdaryo viloyati hududida arxeologik tadqiqotlar izchil davom ettirildi. M.X. Pardayev¹⁶ va F.E.

⁷ Негматов Н.Н., Хмельницкий С.Г. Средневековый шахристан. – Душанбе, 1966. – С. 195.

⁸ Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). – Ташкент, 1966. – С. 213.

⁹ Билолов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. – Душанбе, 1980. – С. 28–44.

¹⁰ Рахимов С.Р. Годовой отчет Джизакского археологического отряда Института археологии АН УзССР за 1970 г. – O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi arxivi. – A.3337/R27. 6-fond, 1-ro‘uxat, 11-yig‘majild, 5-6-varaqlar; Бадахов Р.А. Отчет о полевых работах Джизакского археологического отряда в сезоне 1982 г. – Самарканд, 1982. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 13a-yig‘majild, 6–7-varaqlar.

¹¹ Алимов У.А. Отчёт о полевых работах Джизакского археологического отряда за 1983 г. – Самарканд, 1985. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 7-yig‘majild, 12-varaqlar.

¹² Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Фарбий Уструшонадан топилган зардуштий қавм излари // Ўзбекистон археологияси. – №1(2). – Самарканд, 2011.; Пардаев М.Х. Отчёт об археологическом изучении памятников истории материальной культуры в зоне орошения и освоения земель Кизильинского массива за 1985–1987 гг. – Самарканд, 1987. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 5-yig‘majild, 16-varaqlar.; Пардаев М.Х. 1992 йил археология казув тадқиқотлари тўғрисида Жиззах отряди хисоботи. – Самарканд, 1993. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 29-yig‘majild, 16-varaqlar.

¹³ Грицина А.А. Отчёт о работах Сырдаринского отряда в 1990 г. – Самарканд, 1990. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 23a-yig‘majild, 13-16-varaqlar; Грицина А.А. Отчёт о работах Зааминского отряда в 1994 г. – Самарканд, 1995. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 33-yig‘majild, 9-10-varaqlar; Грицина А.А. Отчёт о работах Зааминского отряда в 2001 г. – Самарканд, 2002. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 40-yig‘majild, 12-13-varaqlar; Грицина А.А. Отчёт по археологическим работам за 2005 год. – Самарканд, 2006. // O‘zR FA Arxeologiya instituti arxivi, 6-fond, 1-ro‘uxat, 44-yig‘majild, 7-varaqlar.

¹⁴ Алимов У.А., Сверчков Л.М. Работы в Джизакской области // Археологические открытия. – Москва, 1984. – С.101–102.

¹⁵ Грицина, А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н.э. – начале XIII вв. н.э. (археолого-топографическое исследование): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – С.17.

¹⁶ Пардаев М.Х. Северо-западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течения Сангзара): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1995. – 24 с.

Toshboyev¹⁷ lar viloyat hududida olib borgan arxeologik izlanishlari asosida yakuniy ilmiy ishlarini dissertatsiya shaklida himoya qilganlar.

1997-yilda A. Gritsina tomonidan yozilgan Sirdaryo viloyatidagi qo‘rg‘on-mozorlarni o‘rganishga bag‘ishlangan maqolada Sag‘anaqtepa mozor-qo‘rg‘onida olib borilgan qazishma natijalari e‘lon qilingan bo‘lib, muallif ularni miloddan avvalgi IV–III asrlar bilan davrlashtirgan¹⁸.

Keyingi yillarda, 2003, 2004 hamda 2014–2015-yillarda, Eski Xovos yodgorligida arxeologik tadqiqotlar davom ettirilgan. Natijada ilk o‘rta asrlarga oid devor qoldiqlari, xo‘jalik binolari hamda olovga sig‘inish (zardushtiy) xonalari aniqlangan¹⁹.

2016-yilda M. Pardayev va J. G‘ofurovlar tomonidan “Ustrushonaning ilk o‘rta asr qishloq makonlari” nomli monografiya nashr etilib, unda Sirdaryo viloyatining ushbu davrga oid qishloq manzilgohlari qisman yoritilgan²⁰. 2017-yilda esa M. Pardayev va B. To‘ychiboyevlarning “Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda (yozma va arxeologik manbalar asosida)” nomli asarida o‘lkaning qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi tarixiy-geografik jarayonlari tahlil qilingan²¹.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar, asosan, viloyat hududidagi arxeologik yodgorliklarning tavsifi va davrlanishini aniqlash bilan chegaralangan edi. Shu bois, Sirdaryo viloyatining tarixini arxeologik va yozma manbalar asosida kompleks tarzda o‘rganish, uzoq vaqt davomida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanmagan. Bizning tadqiqotlarimiz natijasida ilk bor viloyat hududidagi dastlabki manzilgohlar va ularning asoschilari, shuningdek, hududda davlatchilik tizimining paydo bo‘lish jarayonlari alohida ilmiy tahlilga tortildi. Bundan tashqari, viloyat hududida joylashgan qadimgi suv inshootlari haqida yangi ilmiy qarashlar ilgari surildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.

Mazkur tadqiqot Guliston davlat universitetida amalga oshirilayotgan AIF1/2 raqamli “Oliy ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida “O‘quv-ilmiy kompleks tashkil yetish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sirdaryo viloyati hududining qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixini manbalar asosida har tomonlama tahlil etish, arxeologik va yozma manbalarni tizimli o‘rganish orqali ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini aniqlash hamda uning O‘zbekiston tarixidagi tutgan o‘ziga xos mavqeyini ilmiy asoslash.

¹⁷ Тошбоев Ф.Э. Уструшона кўчманчи чорвадор халқларининг антик даврдаги маданияти ва ижтимоий-сиёсий ҳаёти: Тарих фан. номз. ...дисс. – Жиззах, 2011.; Тошбоев Ф.Э. Қадимги Уструшона чорвадорлари тарихи ва маданияти: Тарих фанлари доктори (DSc) ...диссер. автореф. – Тошкент, 2024. – Б. 28.

¹⁸ Грицина А.А. Изучение курганов в Сырдарьинской области // ИМКУ. – Самарканд, 1997. –№28. – С.74.

¹⁹ Mamirov O.O‘. Shimoliy-g‘arbiy Ustrushona moddiy va ma‘naviy madaniyati (arxeologik materiallar asosida): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ...disser. avtoref. – Toshkent, 2024. – В. 14.

²⁰ Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг ilk ўрта аср кишлок маконлари. – Тошкент: Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti, 2016. – Б. 25.

²¹ Пардаев М.Х., Туйчибоев Б.Б. Уструшона қадимда ва ilk ўрта асрларда (ёзма ва археологик манбалар асосида). – Тошкент, 2017. – Б. 17.

Tadqiqotning vazifalari:

Qadimgi va oʻrta asrlarga oid yozma manbalar asosida Sirdaryo viloyatining tarixiy jarayonlarini aniqlash va tahlil qilish;

Mintaqadagi moddiy-madaniy merosni arxeologik topilmalar asosida oʻrganish va ularning tarixiy ahamiyatini yoritish;

Sirdaryo viloyati hududida ilk shaharlar va davlatchilik shakllanishining tarixiy bosqichlarini aniqlash;

Qadimiy aholining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot tarzini aniqlovchi omillarni tahlil qilish;

Qadim va oʻrta asrlarga oid suv inshootlarining qurilishi va ularning mintaqaviy rivojlanishga taʼsirini oʻrganish;

“Buyuk Ipak yoʻli” doirasida Sirdaryo hududining geografik va strategik ahamiyatini baholash;

Arxeologik yodgorliklar xaritasi asosida mintaqaning tarixiy geografiyasini aniqlashtirish;

Tadqiqot natijalari asosida mintaqa tarixini chuqur oʻrganish boʻyicha ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt sifatida Sirdaryo viloyatining qadimgi davr va oʻrta asrlardagi tarixiy rivojlanish jarayonlari, ushbu jarayonlarda ishtirok etgan etnik guruhlar, siyosiy tuzilmalar hamda hududga oid moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari oʻrganiladi.

Tadqiqotning predmetini hududga oid arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, topilmalar va tarixiy jarayonlarning hududda aks etishi, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar, davlatchilik shakllari va urbanizatsiya jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va xolislik tamoyillariga rioya qilindi hamda tizimli tahlil, qiyosiy-xronologik ketma-ketlik, hududiy, kompleks tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Arxeologik va yozma manbalar tahliliga asoslanib, Sirdaryo viloyati hududida dastlabki manzilgoh va shaharlar Yevroosiyo dashtlaridan janubga siljigan chorvador jamoalar tomonidan miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda vujudga keltirilganligi ilk bor asoslab berildi. Bu jarayonlar dastlab Shimoliy Baqtriya (hozirgi Surxondaryo) hududlarida boshlangan boʻlib, soʻngra Soʻgʻd va undan Fargʻona tomon siljigan tarixiy jarayonlar doirasida yuz bergani aniqlangan;

Nurtepa, Xontepa, Sagʻanaqtepa, Sagʻanaqtepa I hamda Eski Xovos kabi yodgorliklarning eng qadimgi aholi manzilgohlari sifatida shakllangani, ularni barpo etgan insonlarning etnomadaniy xususiyatlari va yashash tarziga oid arxeologik materiallar asosida ilk marotaba tizimli tahlil qilindi. Ushbu yodgorliklarning davriyligi miloddan avvalgi VIII–IV asrlarga toʻgʻri kelishi aniqlanib, ular Sirdaryo vohasidagi eng qadimgi etnoslar boʻlganligi dalillandi;

Turkiston togʻ tizmasining togʻoldi hududlari va soy boʻylarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan aholi yashagan qadimiy manzilgohlarda miloddan avvalgi VI–IV asrlarda ijtimoiy tabaqalanish jarayonining kuchayishi

natijasida hududda ilk siyosiy tuzilmalarning shakllanganligi aniqlab berildi. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ilk davlatchilikning asosiy zamini bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslandi;

Fan doirasida ilgari bildirilgan fikrlardan farqli ravishda, Sirdaryo viloyatidagi O'rinboyariq inshootining boshlanish nuqtasi borasida mavjud bo'lgan xatoliklar tanqidiy tahlil qilindi va dala tadqiqotlari natijasida ushbu inshootning haqiqiy boshlanish manzili aniqlashtirildi. Bu holat viloyatdagi sug'orish tizimlari tarixini qayta talqin qilishga zamin yaratdi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yozma va arxeologik manbalarni tahlil qilish orqali o'lkaning yurtimiz tarixida tutgan o'rni ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiya materiallaridan magistratura talabalari uchun "Tarixiy rekonstruksiya masalalari" o'quv qo'llanmasini tayyorlashda hamda Guliston davlat universiteti tarix yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalariga o'qitilayotgan "O'lka moddiy-madaniyat tarixi" fanining o'quv materiallarini yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida tarix fanida qo'llanilayotgan zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilganligi, qo'yilgan masalalar O'zR FA Arxeologiya instituti, Guliston va Xovos shaharlaridagi o'lka shunoslik muzeylari fondlarida saqlanayotgan materiallardan, shuningdek, Sirdaryo viloyati tarixiga bag'ishlab yozilgan ilmiy nashrlardan foydalanilganligi tadqiqotning ishonchliligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati to'plangan ma'lumotlar, xulosa, taklif va tavsiyalar Sirdaryo viloyati tarixini tarixiylik, xolislik, tizimlilik tamoyili asosida yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati shundaki, Sirdaryo viloyatining qadimgi va ilk o'rta asrlardagi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar yaratishda, dissertatsiya ishida keltirilgan ma'lumot va ilmiy xulosalardan oliy ta'lim muassasalarida darslik, metodik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Sirdaryo viloyati tarixi yozma va arxeologik manbalar asosida mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot jarayonida erishilgan **ilmiy xulosalar va natijalardan:**

Arxeologik va yozma manbalar tahliliga asoslanib, Sirdaryo viloyati hududida dastlabki manzilgoh va shaharlar Yevroosiyo dashtlaridan janubga siljigan chorvador jamoalar tomonidan miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda vujudga keltirilganligi ilk bor asoslab berildi. Bu jarayonlar dastlab Shimoliy Baqtriya (hozirgi Surxondaryo) hududlarida boshlangan bo'lib, so'ngra So'g'd va undan Farg'ona tomon siljigan tarixiy jarayonlarga doir ilmiy natijalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 04-fevraldagi 01-33/35-son ma'lumotnomasi) ko'rsatuvi ssenariylarini shakllantirishda foydalanilgan. Natijada Sirdaryo viloyati tarixiga oid shu paytgacha fanga kiritilmagan yangi hujjatli ma'lumotlar tadqiqot doirasiga tortilgani yanada ko'proq tushunchalar hosil bo'lishida yordam bergan.

Nurtepa, Xontepa, Sag‘anaqtepa, Sag‘anaqtepa I hamda Eski Xovos kabi yodgorliklarning eng qadimgi aholi manzilgohlari sifatida shakllangani, ularni barpo etgan insonlarning etnomadaniy xususiyatlari va yashash tarziga oid arxeologik materiallar asosida ilk marotaba tizimli tahlil qilindi. Ushbu yodgorliklarning davriyligi mil.avv. VIII–IV asrlarga to‘g‘ri kelishi aniqlanib, ular Sirdaryo vohasidagi eng qadimgi etnoslar bo‘lganligiga doir ilmiy natijalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 04-fevraldagi 01-33/35-son ma’lumotnomasi) ko‘rsatuvi senariylarini shakllantirishda foydalanilgan. Bu yangilik arxeologik ma’lumotlarni ilmiy tizimlashtirish, eng qadimgi aholi manzilgohlarining etnomadaniy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish va natijalarni ommaga yetkazishda ilmiy-uslubiy asos yaratib berdi.

Turkiston tog‘ tizmasining tog‘oldi hududlari va soy bo‘ylarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan aholi yashagan qadimiy manzilgohlarda miloddan avvalgi VI–IV asrlarda ijtimoiy tabaqalanish jarayonining kuchayishi natijasida hududda ilk siyosiy tuzilmalarning shakllanganligi aniqlab berildi. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar ilk davlatchilikning asosiy zamini bo‘lganligiga doir ilmiy natijalardan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining ilmiy-tadqiqot loyihalari, tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish va targ‘ib qilish dasturlarida, shuningdek, yosh avlodni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarida samarali foydalanildi. (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi tomonidan 2024-yilning 24- sentabrida berilgan №01-38 ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning joriy qilinishi tarixiy-madaniy yodgorliklar tarixini bilishga, yosh avlodni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Natijada Sirdaryo viloyati tarixi mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilar, tariximiz bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilarga yangi ma’lumotlar berish imkonini berdi.

Fan doirasida ilgari bildirilgan fikrlardan farqli ravishda, Sirdaryo viloyatidagi O‘rinboyariq inshootining boshlanish nuqtasi borasida mavjud bo‘lgan xatoliklar tanqidiy tahlil qilindi va dala tadqiqotlari natijasida ushbu inshootning haqiqiy boshlanish manzili aniqlashtirilganligiga doir ilmiy natijalardan Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondining ilmiy-tadqiqot loyihalari, tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish va targ‘ib qilish dasturlarida, shuningdek, yosh avlodni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarida samarali foydalanildi. (Xalqaro “Oltin meros” xayriya jamoat fondi tomonidan 2024-yilning 24- sentabrida berilgan № 01-38 ma’lumotnomasi). Bu holat viloyatdagi sug‘orish tizimlari tarixini qayta talqin qilishga zamin yaratdi. Ilmiy natijalarning joriy qilinishi tarixiy-madaniy yodgorliklar tarixini bilishga, yosh avlodni madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Natijada Sirdaryo viloyati tarixi mahalliy va xorijiy tashrif buyuruvchilar, tariximiz bo‘yicha tadqiqot olib boruvchilarga yangi ma’lumotlar berish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprotbasiyasi: Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy anjuman va seminarlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 6 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik Dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika miqyosidagi jurnallarda, 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy xajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab olingan; tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalar ishonchli asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Qadimgi davr Sirdaryo viloyati tarixining manbalari va ularda hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini yoritilishi”** deb nomlangan. Birinchi bobning birinchi paragrafi **“Qadimgi davr manbalarda Sirdaryo viloyati hududi haqidagi ma'lumotlar”** deb nomlangan.

Sirdaryo zaminida insonlar qadimgi tosh davridan beri yashab kelishgan bo'lsada, uning qadim tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi ilk yozma manbalar bir muncha keyingi davrlarga oiddir. Qadimgi Sirdaryo tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim yozma manba qadimgi grek tarixchisi Arrianning «Aleksandrning harbiy yurishlari» asaridir²². Milodiy II asrda yashagan Arrian ushbu asarida makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga yurishlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shubhasiz, muallif voqealarni yoritishda makedoniyalik Aleksandr davrida yashagan muarrixlar manbalaridan foydalangan. Unda yozilishicha, miloddan avvalgi 329-yili So'g'd poytaxti Marakanda (Samarqand)ni olgan Aleksandr shimoli-sharqqa Tanais (Yaksart-Sirdaryo) tomon yurish qiladi. U Sirdaryo bo'yida, uning chap qirg'og'ida 17-20 kun ichida Aleksandriya-Esxata (Chekka Aleksandriya)shahrini barpo etadi. Aleksandriya-Esxatadan tashqari Arrianda Sirdaryoning chap qirg'og'ida joylashgan yana 7 ta shaharning nomi tilga olinadi. Antik davr manbalarida yozilishicha, ular Ahomoniylar shohi Kir II (milodgacha 558-530-yillar) tomonidan barpo etilgan²³. Ulardan biri, unga asos solgan shoh sharafiga Kiropol (Chekka Kir) deb nomlangan²⁴, agar haqiqatan ham shunday bo'lsa, u holda qadimgi Sirdaryo hududlari bir vaqtlar Ahomoniylar davlati

²² Арриан Флавий. Анабасис Александра, или История походов Александра Великого / Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеенко. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1962. – С. 234.

²³ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в. н.э. // Материалы и исследования по археологии. – №37. – М.; Л., 1953. – С. 180–247.

²⁴ Негматов Н.Н. Историко-географический очерк Уструшаны с древнейших времен по X в. н.э. // Материалы и исследования по археологии. – №37. – М.; Л., 1953. – С. 180–247.

tarkibida bo'lgan. Ammo bu fikrga akademik B.A Litvinskiy qarshi chiqadi, uningcha shahar nomining o'zagini tashkil etuvchi "Kuru" yoki "Kurush" so'zlari hozirgi Kurkat qishlog'i (Shirin shahri yaqinida) yoki Sirdaryo irmog'i Kurshob nomlaridan olingan bo'lib, yunonlar ushbu nomni o'z an'alariga moslashtirib Kir Esxata deb atashgan²⁵. D.Dovudiy esa shahar nomi so'g'dlarning Kuru qabilasi nomidan olingan deb xisoblaydi. Bu vaziyatda Sirdaryo hududi Ahomoniylar davlati tarkibiga kirmagan bo'lib chiqadi va Arrian tilga olgan 7 ta shahar qadim ajdodlarimiz tomonidan qurilgan bo'ladi. Makedoniyalik Aleksandr unga qarshi So'g'dda Spitamen boshchiligidagi qarshilikni bostirish uchun Marakandaga qaytganidan foydalanib, yuqoridagi 7 ta shahar aholisi qo'zg'olon ko'taradi va Aleksandr tomonidan qoldirilgan yunon-makedon qo'shinlarini qirib tashlaydi. Arrianning yozishicha, «daryo bo'yi varvarlari» makedoniyalik jangchilarni qirib tashlab, o'z shaharlarini mustahkamlaganlar. Qo'zg'olonida «daryo bo'yi varvarlari» bilan bir qatorda ko'plab so'g'dlar ham ishtirok etganlar. Shu yerda bir muhim xulosa qilish mumkin, ya'ni qadimgi sirdaryoliklar so'g'dlardan farq qilgan. Chunki Arrian mahalliy xalqni so'g'dlardan farqli ravishda "varvarlar" deb yozadi. Arrian «varvar» lar tomonidan mustahkamlangan 7 ta shahardan 2 tasining nomini tilga oladi, bular Kiropol va Gaza. Voqeadan xabar topgan Aleksandr shoshilinch orqaga qaytib, qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostiradi. Barcha 7 ta shahar ham vayron qilingan va yoqib yuborilgan. Shaharlarning erkak aholisi o'ldirilib, ayollar va bolalar o'lja sifatida jangchilarga bo'lib berilgan. Eng shiddatli jang Kiropol uchun bo'ladi. Baland devorlar bilan o'ralgan va ko'plab jangovar «varvarlar» to'plangan shahar yunon-makedon qo'shinlari uchun osongina egallanadigan manzil bo'lmay, uni zabt etish katta sa'y-harakatlarni talab qilgan. Kiropolni Aleksandr harbiy xiyla bilangina oladi. U oz sonli qo'shin bilan daryoning qurib qolgan qismi orqali shahar ichkarisiga kirib oladi va shahar darvozasini ichkaridan buzib, o'z qo'shinining shaharga kirib olishiga imkon yaratadi. Orada qattiq jang bo'lib, Aleksandr boshi va bo'ynidan tosh bilan qattiq jarohat olgan. Aleksandrning lashkarboshisi Krater va boshqa lashkarboshilari ham shahar mudofaachilari tomonidan otilgan o'q-yoylardan yaralanganlar. Shiddatli qarshilikdan so'ng himoyachilarning ko'pchiligi qirib tashlangan, qolganlari shahar ichkarisidagi arkka yashirinishgan. Keyinchalik ular ham tor-mor etilgan. Kursiyning ta'kidlashicha, "tarixda hech bir shahar bunday darajadagi qamalga duch kelmagan" (Kvint Kursiy Ruf, VII, 23).

Ilmiy adabiyotlarda ajdodlarimiz tomonidan himoya qilingan qadimgi shaharlarning aniq joylashuvi masalasi hanuzgacha bahsli bo'lib qolmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar fikricha, ustrushonaliklarning asosiy shahri bo'lgan Kiropol hozirgi O'ratepa shahridagi Mug'qal'a yodgorligi o'rnida joylashgan²⁶, boshqa bir guruh olimlar esa uni Xovatog' yaqinidagi Nurtepa yodgorligi bilan bog'lashadi²⁷.

²⁵ Литвинский Б.А. Проблемы этнической истории древней и раннесредневековой Ферганы // История и культура народов Средней Азии. – Москва, 1976. – С. 51.; Пьянков И.В. Александрия Крайняя в известиях античных авторов // Исследования по истории и культуре Ленинабада. – Душанбе, 1986. – С. 64-65.

²⁶ Негматов Н.Н., Беляева Т.В. Проблемы начального этапа урбанизации Уструшаны (по материалам Нуртепа) // Древние цивилизации Востока. – Ташкент: Фан, 1986. – С. 76.

²⁷ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 65.

Bizning fikrimizcha ham Kiropol Nurtepa yodgorligi o'rnida bo'lgan bo'lsa kerak. Sababi, aynan shu yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar natijasida miloddan avvalgi VII-IV asrlarga oid madaniy qatlamlar o'rganilgan²⁸. Mug'qal'ada esa bu davrga oid madaniy qatlamlar topilganicha yo'q.

Arrian tomonidan qayd etilgan ikkinchi shahar Gaza esa ayrim olimlar tomonidan Gazandarak qishlog'i o'rnida, boshqalar esa Tojikiston Respublikasining Nau tumanida²⁹, uchinchi guruh olimlar esa uni Xo'jand o'rnida bo'lgan deb hisoblaydilar. Yetarli darajada arxeologik tadqiqotlar olib borilmaganligi sababli, bu muammo hozircha ochiq qolmoqda.

Antik davr yozma manbalarda yozilishicha, makedoniyalik Aleksandr va uning sarkardalari Sirdaryo bo'ylarida amalda an'anaviy ko'rsatilgan yetti shahardan ancha ko'p shaharlarni bosib olishgan. Balkim bu yetti shahar yoki qal'alar mavjud bo'lgan nisbatan ko'proq bo'lgan manzilgohlar ichida eng mustahkamlari bo'lib, dushman xavfi paydo bo'lganda yon-atrofdagi manzilgohlar aholisi aynan shu joylarga yashirilib, jon saqlashgan bo'lishi mumkin. Bu hol Arrian ma'lumotlarida tasdiqlanadi: "Aytishlaricha "yovvoyilar" atrofdan bu yetti shaharga qochib kelar edilar"³⁰. Bu uncha katta bo'lmagan qishloqlar jumlasiga yetti shahardan tashqari, viloyatimiz hududidagi miloddan avvalgi VI asrga oid Saganaktepa va Saganaktepa I xarobalarini ham kiritish mumkin³¹.

Ilmiy adabiyotlarda hozirgacha viloyatning qadimgi aholisi tili sug'd tiliga yaqin bo'lib, u Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida yashagan xalqlar tili bilan o'xshashlikka ega bo'lgan degan fikr ilgari surib kelinadi. Xan davri yozma manbalarida Dovon (Farg'ona)dan to Ansi (Baqtriyagacha) bo'lgan hudud aholisi turli shevalarda gaplashsalarida, bir-biriga yaqin tilda gaplashganlar va o'zaro bir-birlarini tushunganlar deb beriladi³². Biroq yuqorida ta'kidlanganidek, Arrian mahalliy xalqni so'g'dlardan farqli ravishda "varvarlar" deb atagan. So'nggi yillarda Ustrushonada bronza davridan proturkiy qavmlar (Andronovo madaniyati vakillari) yashaganligi borasidagi qarashlar³³, bizga o'troq va chorvador aholi yonma-yon yashagan Sirdaryo viloyatining qadimgi aholisining ma'lum qismi turkiy qavmlardan iborat bo'lganligi borasida fikr bildirish imkonini beradi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi **"Mintaqa aholisining qadimgi davr moddiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining xususiyatlari"** deb nomlangan. Yozma manbalarda Sirdaryo viloyatining qadimgi tarixi haqida umumiy tushunchalar berilsada, arxeologik tadqiqotlar tarixiy ma'lumotlarni kengaytirib, makedoniyalik Aleksandrning yurishidan oldingi davr haqida ma'lumotlar beradi. Sirdaryo viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklar 1984-

²⁸ Беляева Т.В. Нуртепа-городище древней Уструшаны // Археологические исследования в Таджикистане. Вып. XXIII. – Душанбе, 1994. – С. 87-88.

²⁹ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. – Ленинград: Госиздат, 1927. – С. 32.

³⁰ Арриан Флавий. Анабасис Александра, или История походов Александра Великого / Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеенко. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1962. – С. 234.

³¹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 12.

³² Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена: В 2 т. – М.; Л.: Изд-во восточной литературы, 1950. – 272 с.

³³ Toshboyev F.E. Qadimgi Ustrushona chorvadorlari tarixi va madaniyati: Tarix fanlari doktori (DSc) ...dissertatsiya. – Toshkent, 2024. – B. 30.

1990-yillari O‘zR FA Arxeologiya Institutining A. Gritsina rahbarligidagi Sirdaryo otryadi tomonidan o‘rganilgan. O‘rganishlar natijasida viloyat hududida 137 ta arxeologik yodgorlik aniqlangan³⁴. Shulardan 117 tasi manzilgohlar, 15 tasi mozorqo‘rg‘onlar va 5 tasi xumdonlar. Yodgorliklarning 6 tasi qadimgi (mil.avv. VII –milodiy IV asrlar), 60 tasi ilk o‘rta asrlar (V-VIII asrlar), 29 tasi rivojlangan o‘rta asrlar (IX-XV) va 4 tasi so‘nggi o‘rta asrlar (XVI-XVIII) davriga oidligi aniqlangan. Arxeologik yodgorliklar A. Gritsina tomonidan ikki zonaga: shimoliy-sharqiy (Sirdaryobo‘yi) va janubiy-g‘arbiy (cho‘l va tog‘oldi) ajratilgan³⁵.

Bizningcha, viloyat hududidagi arxeologik yodgorliklarni o‘rganish jarayonida topilgan asoru-atiqalar tahliliga asoslanib, Sirdaryobo‘yi zonasidagi yodgorliklarni Choch tarixiy-madaniy viloyatiga, tog‘oldi zonasidagi ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklarni esa Ustrushona tarixiy-madaniy viloyatiga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yodgorliklarning ettitasida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Shu sababli, viloyat aholisi moddiy madaniyati borasidagi xulosalarda qadimda va o‘rta asrlarda bugungi viloyat aholisi bilan yagona tarixiy-madaniy viloyatni tashkil etgan, qo‘shni hududlardagi arxeologik yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan taqqoslash va umumlashtirish maqsadida foydalanilgan.

Arxeologik yodgorliklarning joylashuvi tahlili shuni ko‘rsatadiki, qadimgi sirdaryoliklar manzilgohlari asosan suv manbalari yonida joylashgan. Chunki bu joylar sug‘orma dehqonchilik uchun qulay bo‘lgan. Suv manbalaridan uzoqroqda joylashgan manzilgohlar ham bo‘lgan, ular manbalarda «atrofdagi qishloqlar» deb yuritiladi³⁶. Biror bir tashqi xavf tug‘ilganda «atrofdagi qishloqlar» aholisi mustahkam mudofaa devorlariga ega bo‘lgan shaharlarga kelib bekinishgan. Bunday shaharlar jumlasiga yunon tarixchisi Arrian tomonidan tilga olingan yettita shaharlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu shaharlar o‘lkamizning o‘sha davrlardagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va diniy markazi vazifasini o‘taganlar.

Sirdaryo tarixi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan viloyat hududida eng qadimgi manzilgohlar va ilk shaharlarning paydo bo‘lishi hamda ularga asos solgan aholining kimlar bo‘lganligi masalasi maxsus tadqiq qilinmagan. Ushbu masalaga oydinlik kiritishda mutaxassislarning Farg‘onada kulolchilik charxining paydo bo‘lishi borasidagi fikrlari o‘ziga xos turtki vazifasini o‘taydi. Ma’lumki, dastlab 1999-yilda G. Ivanov Farg‘onada charxda ishlangan “oq fonli” sopol idishlar paydo bo‘lishini miloddan avvallgi X asr oxiri - IX asrlarda Yevroosiyo dashtlaridan Janubiy O‘zbekiston (Shimoliy Baqtriya)ga kelib o‘rnashib, u yerda charxda sopol idishlar yasashni o‘zlashtirgan chorvadorlarning miloddan avvallgi VIII asrda Farg‘onaga kelib o‘rnashganliklari bilan izohlagan bo‘lsa, keyinchalik 2002-yilda M.Isomiddinov ham Eyloton madaniyatining Kungay va Sufan yodgorliklaridagi charxda ishlangan sopol idishlarni paydo bo‘lishini So‘g‘dga Baqtriyadan kelgan va keyinchalik Farg‘onaga siljigan aholi bilan bog‘laydi. Mazkur dalillar quyidagi ilmiy xulosani shakllantirishga imkon beradi: Nurtepa va

³⁴ Ma’lumotlar 1999-yil 30-aprel holatiga olingan.

³⁵ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 42.

³⁶ Арриан Флавий. Анабасис Александра, или История походов Александра Великого / Пер. с древнегреч. М.Е. Сергеевко. – М.; Л.: Издательство АН СССР, 1962. – С. 234.

Eski Xovos yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan sopol idishlar hamda Nurtepadagi uy-joylar konstruksiyasini tahlil qilish bizga Yevroosiyo dashtlaridan dastlab Shimoliy Baqtriyaga, so'ngra So'g'd orqali Farg'ona tomon harakatlangan chorvador jamoalarning bir qismi Turkiston tog' tizmasining yaylovlari va soylar bo'yidagi unumdor hududlarni o'zlariga makon sifatida tanlaganliklarini taxmin qilishga asos beradi. Arrian ma'lumotlarida qayd etilgan Sirdaryo bo'yidagi yetti shahar va xavf tug'ilgan paytda ularda yashirinib jon saqlagan qishloqlar aynan shu chorvador jamoalar tomonidan barpo etilgan bo'lishi kerak. Shunday manzilgohlar qatoriga Nurtepa, Sag'anaqtepa, Sag'anaqtepa 1 hamda katta ehtimol bilan Eski Xovos yodgorliklarini kiritish mumkin.

Arxeologik tadqiqotlar o'lkaning qadimgi aholisi o'ziga xos moddiy madaniyatga ega bo'lganliklari borasida guvohlik beradi. Fanda bu madaniyat "Nurtepa madaniyati" (miloddan avvallgi VII-II asrlar) deb ataladi. Nurtepa madaniyatida janubning o'troq dehqonchilik madaniyati ta'siriga qaraganda chorvador aholi madaniyati ta'siri ko'proq kuzatiladi. Nurtepa madaniyatida paxsa va xom g'ishtdan qurilgan hashamatli imoratlar (ark, mudofaa inshootlari) hamda yarim yerto'la tipidagi uy-joylarning birgalikda uchrashi; sopolchilikda ushbu davr O'rta Osiyo sopolchiligi uchun xos bo'lgan rang bilan bo'yalgan va silindrsimon shakldagi sopol buyumlarning uchramasligi; qo'lda ishlangan sopol buyumlarning charxda ishlanganlariga qaraganda ko'pchilikni tashkil etishi³⁷, yuqoridagi xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Viloyat qadimgi aholisining asosiy xo'jalik turi sug'orma dehqonchilik va yaylov chorvachiligi bo'lgan. Soylarda ko'plab sug'orish inshootlari qurilgan. Misol uchun hududdagi eng yirik yodgorliklardan biri - Nurtepa yodgorligi aholisi, miloddan avvallgi V - III asrlar davomida Shahrisonsoydan chiqarilgan, 4 kilometr masofani tashkil etuvchi sun'iy kanal yordamida, 800 gektarga yaqin yerni, umumiy uzunligi 14 kilometrni tashkil qiluvchi mayda tarmoqlar yordamida sug'organlar. Dehqonchilikda bug'doy, arpa yetishtirish asosiy o'rin egallagan. Ushbu davr yodgorliklarida tosh yorg'ichlar (bug'doyni un qilish uchun), temirdan ishlangan pichoq, o'roqlar ko'plab uchraydi. Tog'li hududlarda esa lalmi dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlangan.

Tadqiqotlar natijasida viloyat hududidagi qadimgi yodgorliklardan topilgan sopol idishlaridagi mato parchalari qoldiqlari va izlari, ko'plab ip yigiruv va to'quv qurollari, xususan, sopol, tosh va suyakdan yasalgan urchuqboshlar, posangilar qadimiy sirdaryoliklarning to'quv dastgohlaridan keng foydalanib, turli darajadagi jun, ipak va ehtimol, paxta matolar ishlab chiqarganliklarini ko'rsatadi. Sopol buyumlar charxda yoki qo'lda yasalgan. Qurol-yarog'lar ichida bronzadan yasalgan o'q-yoylar keng tarqalgan. Shu davrgacha bo'lmagan temir metallurgiyasining o'zlashtirilishi va kulolchilik charxining yoyilishi viloyat hududida miloddan avvalgi I-ming yillik o'rtalariga kelib xo'jalikning taraqqiyotidan guvohlik beradi. Aholi o'z uylarini xom g'ishtdan ko'tarishgan. Masalan, miloddan avvalgi IV - III asrlarda bunyod etilgan Sag'anaktepa va

³⁷ Кудратов С. Сардобалар ўлкаси. – Тошкент, 2010. – Б.14.

Sagʻanaktepa-I yodgorliklarida oʻrganilgan uylar kvadrat shaklidagi xom gʻishtdan qurilgan. Shu bilan birga yertoʻla uylar ham uchraydi³⁸. Turar - joylar vazifasini bajaruvchi yertoʻla va qisman xom gʻishtdan foydalanib bunyod qilingan yarim yertoʻlalar, tabiiy tepaliklarni kesish, xom gʻisht va paxsa bilan mustahkamlash yordamida bino etilgan mudofaa devorlari, hashamatli inshootlar (diniy va maʼmuriy binolar, saroylar), ulardagi oʻziga xos uslub va rejalar, meʼmoriy bezaklar bu davrda meʼmorchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi ajdodlarimizning diniy qarashlari borasida fikr bildirishda kam sonli boʻlsada, arxeologik materiallar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Xontepa yodgorligidan (miloddan avvalgi V - III asrlar) xumning ichiga solinib koʻmilgan it topilgan. Xum aynan itni unda koʻmish uchun maxsus tayyorlangan, bunday deyishimizga sabab uning tagida havo aylanishi uchun teshik qilingan boʻlgan. Mutaxassislar ushbu davrga oid qabrlarda odamlar bilan birga itlar koʻmilganligini qayd etishadi³⁹. Itlar qurbonlik sifatida odamlar bilan birga koʻmilgan, sababi oʻlimidan soʻng ham it oʻz xoʻjayinini yovuz kuchlardan himoya qilishi kerak boʻlgan. Shirinsoy yonidagi qabristondagi qoʻrgʻonlardan birida ham qurbonlik idishida itning jagʻ suyaklari topilgan⁴⁰.

Shu oʻrinda, ushbu hududda oʻtmishda boʻri va it bosh chanogʻi bilan aloqador udumlarning uchrashi tasodifiy hodisa emasligini taʼkidlash joiz, zero boʻri turkiy qavmlarning totemi boʻlgan⁴¹. Ushbu holat yuqorida keltirilgan, viloyat hududida miloddan avvalgi VIII–VII asrlardan boshlab turkiy qavmlar yashaganligi haqidagi qarash foydasiga yana bir dalil sifatida xizmat qiladi.

Aholisi dehqonchilik va yaylov chorvachiligi bilan shugʻullangan qadimiy Sirdaryo manzilgohlarida miloddan avvalgi VI-IV asrlarga kelib, tabaqalanish jarayonlari kuchayib boradi. Bu jarayonni, xususan, yodgorliklarning markaziy mudofaa qobiliyatlarining mustahkamlanishi, shahar arking va uning markaziy qismida joylashgan diniy markaz - otashkada, zikkuratning barpo etilishi, sunʼiy suv inshootlarining qurilishida koʻrishimiz mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, viloyat va unga qoʻshni hududlarda davlatchilik tizimi shakllana boshlanganligi borasida xulosa qilish imkonini beradi. Faraz qilinishicha, viloyat hududidagi ilk davlatlar harbiy konfederatsiyaning soʻnggi bosqichi darajasida boʻlib, harbiy demokratiya prinsipi asosida tashkil topgan. Yunonlarga qarshi kurashda qabilalar ittifoqidagi «mamakenlar» qabilasining yetakchi mavqei ham buning dalilidir. Shuningdek, yunon bosqinchilariga qarshi qoʻzgʻolonning kelishilgan vaqtda boshlanishi, sak qoʻshinlarining daryo ortida toʻplanishi va bu voqealarning bir vaqtda sodir boʻlishi ham tasodifiy emas. Ushbu hodisalar oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlib, ular yagona boshqaruv tizimi mavjud boʻlganligidan dalolat beradi.

Hududning tabiiy jihatdan qulay oʻrni va bu yerdan topilgan, boshqa oʻlkalardan keltirilgan koʻplab topilmalar (tangalar, qimmatbaho buyumlar,

³⁸ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 42.

³⁹ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент: Фан, 1992. – С. 42.

⁴⁰ Гайдукевич В.Ф. Могильник близ Ширинсая в Узбекистане // Советская археология. – Москва, 1952. – № XIV. – С. 334.

⁴¹ Mamirov O.Oʻ. Shimoliy-gʻarbiy Ustrushona moddiy va maʼnaviy madaniyati (Arxeologik materiallar asosida): Tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) ...dissert. aʼtoref. – Toshkent, 2024. – B.14.

xo‘jalik mollari) bu davrda qadimiy sirdaryoliklar savdo faoliyatining rivojlanganligi haqida ma’lumot beradi. Ayni vaqtda, bu topilmalar hududning ichki va tashqi savdo munosabatlaridan, ularning negizida esa savdo yo‘llarining rivojlanganligidan ham darak beradi. Tadqiqotchilarning fikricha, hududdagi qadimiy yo‘llar Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan ancha oldin, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘llar shaklida faoliyat ko‘rsatgan. Miloddan avvalgi II asrga kelib, bu yo‘llar Xitoy va O‘rta Osiyo davlatlari orasidagi siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida paydo bo‘lgan “Buyuk Ipak yo‘li”ning shimoliy tarmoqlari shohobchalari sifatida rivojlanadi .

O‘lkaning qadimiy davri yodgorliklari moddiy madaniyati va uning taraqqiyotini kuzatish, o‘lka xalqlari ko‘p qirrali moddiy madaniyatining qo‘shni hududlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan holda, o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanganligidan dalolat beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘rta asrlarda Sirdaryo viloyati hududida kechgan tarixiy jarayonlar va ularning o‘ziga xos jihatlari”** deb nomlangan. Ushbu bobning 1-paragrafi **“O‘rta asr yozma manbalarida Sirdaryo mintaqasining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti”** deb nomlangan. Viloyat hududining janubiy qismi o‘rta asrlarda Ustrushona deb nomlanuvchi tarixiy-geografik viloyatning shimoliy qismi tarkibiga kirgan.

Milodiy 435-yil tarixiy voqealarini bayon qilgan xitoy yilnomasi «Beyshi»da yozilishicha, Kang‘uy davlatining parchalanishi oqibatida Ustrushona mustaqillikka erishadi. Biroq ko‘p o‘tmay, V asr oxiridan VII asrgacha Ustrushona eftalitlar, so‘ngra G‘arbiy Turk xoqonligi tasarrufida bo‘ladi. Bu davrda Ustrushona o‘zining ichki avtonomiyasini saqlab qoladi. Ustrushona davlati “afshin” martabasi bilan nomlanuvchi mahalliy hukmdorlar sulolasi tomonidan boshqarilgan. Hukmdorlik otadan bolaga meros sifatida o‘tgan. Bugungi kunda bu hukmdorlarning ikki sulolasiga tegishli 14 ta vakilining nomlari aniqlangan. Birinchi sulola vakillari 600-720-yillar oralig‘ida, ikkinchi sulola vakillari esa 720-893-yillari hukmronlik qilishgan. Tarixiy manbalarning tahliliga ko‘ra, ikkinchi sulola vakillari turkiy bo‘lishgan. Chunki 720-yilda hokimiyat tepasiga kelgan Ustrushona afshini (hukmdori) Xarabug‘roning (Qora bug‘ro) nomi yuqoridagi fikrga asos bo‘ladi⁴². Shu o‘rinda, balki yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, Shahrisonidan topilgan «ikki go‘dakni emizayotgan ona bo‘ri» tasvirini ham shu turkiy afshinlar sulolasi shajarasi bilan bog‘lash mumkin bo‘lar. Nimagadir ayrim mutaxassislar ushbu devoriy suratni Ustrushonada xristian dinining ta’siri bilan bog‘lashga urinishmoqda. Ularning fikricha, ushbu surat Rimning Kapitoliy tepaligidagi ona bo‘ri va boqiy shahar asoschilari deb baholanadigan Rom va Romul haykali ta’sirida paydo bo‘lganmish. Shu bilan birga tarix fanida Rim asoschilari -etrusk qabilalarining sharqdan borganligi borasida ham mulohazalar borligini qayd etib o‘tish o‘rinli.

VIII asr boshlariga kelib, O‘rta Osiyo hududiga arab bosqinchilari kirib kela boshladilar. 737-yili afshin Xarabug‘ro turk xoqoni bilan ittifoqlikda arablarga

⁴² Буряков Ю.Ф., Грицина А.А. Мавераннахр ва Великом шелковом пути. – Самарканд–Бишкек, 2006. – С. 138–139.

qarshi urishadi biroq magʻlubiyatga uchraydi. Shundan soʻng 738-yili taxtga uning oʻgʻli Xanaxara keladi. U 752-yilda xitoyliklardan arablarga qarshi yordam soʻrab murojaat qiladi, ammo rad javobini oladi. Bu davrda Ustrushona arab bosqinchilariga qarshi kuchlarning qarshilik koʻrsatish markaziga aylanadi. Siyosiy muzokaralar yordamida, maʼlum miqdordagi soliq evaziga, afshinlar Ustrushonada oʻz hokimiyatlarini saqlab qoladi. Faqatgina 822 yilga kelibgina arablar uzoq vaqtlardan beri oʻz hukmronligini oʻrnata olmay kelayotgan Movarounnahrda soʻnggi oʻlka - Ustrushona ham ular tomonidan zabt etiladi.⁴³ 893-894 yillar Ustrushonada Somoniylar davlati hukmronligi oʻrnatiladi⁴⁴.

Yozma manbalar mualliflari Ustrushonaning qulay oʻrni, hosildor yerlari, tabiiy boyliklari haqida maʼlumotlar berar ekan, qoʻshni hududlar va davlatlar bilan yaqin aloqalarini ham taʼkidlab oʻtadilar.⁴⁵ Ustrushona hududi Oʻrta Osiyoning qadimiy ziroatkor vohalarida joylashganligi sababli, dehqonchilik uning iqtisodidagi ustuvor sohalardan biri sanalgan. Asosan tabiiy va sunʼiy sugʻorish tizimlariga asoslangan dehqonchilik, hududdagi koʻplab suv manbalari: buloqlar, togʻ irmoqlari, soylar (Sangzor, Achchisoy, Xoʻjamushkentsoy, Shahristonsoy, Kattasoy, Basmandasoy, Oqsuv, Isfanasoy) va ulardan chiqarilgan sunʼiy suv inshootlari: kanallar va korizlarning murakkab tarmoqlariga asoslangan.

Oʻrta asrlarda Sirdaryodan Mirzachoʻlga Oʻrinboy ariq orqali suv chiqarilgan. 1870-yili injener, baron Aminov ham, 1917-yili tadqiqotchi Karavayev ham Oʻrinboy-oʻgʻiz arigʻini sohil boʻyidagi Choltoʻqay (qozoqcha nomi Shal-toʻgʻay) degan joy yaqinida Sirdaryodan suv olgan deb yozadilar⁴⁶. Aslida esa, Oʻrinboyariq hozirgi Tojikiston Respublikasi Soʻgʻd viloyati Spitamen tumani Qoʻshtegirmon qishlogʻi yaqinida Sirdaryodan suv olgan. Faqat shu yerda Sirdaryo yuqoriga koʻtariladi va u yerdan Mirzachoʻlga suv olsa boʻladi. Ushbu ariqning izlari Guliston tumanidagi “Boyovut”, “Uch qahramon” qishlogʻi hududlarida saqlanib qolingan.

Oʻrta asrlar Ustrushonasining oʻziga xos rivojlangan sanʼati, asosan, arxeologik manbalar asosida baholanadi. Arxeologik topilmalar ustrushonaliklar sanʼatining xalq amaliy (zargarlik, oʻymakorlik, naqqoshlik va h.k.), tasviriy, musiqa va boshqa sohalari haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Kultepa va boshqa yodgorliklardan topilgan oltin, mis, jez va boshqa nodir metallardan quyish, zarb qilish orqali turli xil naqshlar, afsonaviy obrazlar va syujetlarning kompleks tasvirlarini oʻzida mujassam qilgan mahsulotlarning nodir namunalari – qimmatbaho uzuk va sirgʻalar, chiroq va shamdonlar, tamgʻa va patnislar, idish - tovoqlar, oʻchoqlar, yogʻoch va ganch oʻymakorligi namunalari Ustrushona

⁴³ Негматов Н.Н. Уструшана в борьбе с арабским нашествием (конец VII – первая половина IX вв.) // Известия АН Тадж. ССР. Отделение общественных наук. Вып. 5. – 1954. – С. 117–135.

⁴⁴ Тўйчибоев Б.Б. Уструшонанинг қадимий ва илк ўрта асрлар даври сиёсий ҳаёти хусусида мулоҳазалар (мил. авв.–VII мил. VIII асрлар) // ГулДУ Ахборотномаси. – 2014. – №4. – Б. 78–85.

⁴⁵ Негматов Н.Н. Уструшана в древности и раннем средневековье. – Сталинабад, 1957. – С. 103–109.

⁴⁶ Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. – Петроград, 1914. – С. 91.

hunarmand va zargarlarining amaliy san'atini yuksak darajada baholash uchun haqli ravishda asos bo'la oladi⁴⁷.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, arab tilli mualliflar asarlarida o'rta asrlardagi o'lka tarixi haqida xitoy va fors manbalariga nisbatan to'liqroq ma'lumotlar berilgan. Xususan, yuqoridagi manbalarda o'lkaning bu davrdagi siyosiy tarixi, jumladan viloyat aholisining arab bosqiniga qarshi olib borgan kurashi, Ustrushona afshinlari shajarasi haqida qimmatli ma'lumotlar o'z aksini topgan. Shuningdek, ulardan o'lkaning tarixiy-geografik joylashuv o'rni, iqtisodiy va qisman ijtimoiy hayoti haqidagi ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Tadqiqotni ikkinchi bobining ikkinchi paragrafi **“O'rta asr tarixiy jarayonlarining Sirdaryo mintaqasi aholisining moddiy madaniyati hamda siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy hayotiga ta'siri”** deb nomlangan. Qadimdan bir qancha madaniy o'lkalar chorrahasida joylashgan o'lka xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos serqirra va boy bo'lib kelgan. Viloyat hududida arxeologik tadqiqotlar XX asrning 40-50-yillaridan boshlanib, hozirga qadar davom etib kelmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida o'lkada qayd etilgan jami 137 ta arxeologiya yodgorliklarining 60 tasini ilk o'rta asrlarga oid manzilgohlar tashkil etadi⁴⁸. Hududda o'rganilgan Kultepa, Eski Xovos, Qo'shtepa yodgorliklari ilk o'rta asrlar o'lka moddiy madaniyatining ko'plab muammoviy masalalari haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob yodgorliklar hisoblanadi⁴⁹.

Rivojlangan o'rta asrlarga oid o'lkamizdagi yirik manzilgoh bu Xovos yodgorligidir. O'rta asrlardagi Xovos shu nomdagi rustakning markazi bo'lgan. Xovos barcha IX-X asrlar yo'l yo'riqnomalarida So'g'ddan Ustrushona orqali Choch, Xo'jand, Farg'onaga borish va qaytish yo'li manzili tarzida eslatiladi⁵⁰.

Yuqorida qayd etilganidek, viloyat hududi o'rta asrlarda Shimoliy Ustrushona tarkibida bo'lgan. Geografik nuqtai nazardan shimoliy Ustrushona, deb atalayotgan hudud, Ustrushonaning shimoliy qismi, Shahrisonsoyning quyi oqimi, Xo'jamushkentsoy havzalari va hududning tekislik cho'l qismi (Mirzacho'l), arxeologik jihatdan hozirga qadar eng kam o'rganilgan madaniy voha sifatida qolmoqda.

O'rta asrlarda Sirdaryo viloyati hududida kechgan tarixiy jarayonlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning faollashuvi bilan ajralib turadi. Bu davrda mintaqa yirik savdo yo'llari va madaniy markazlar chorrahasiga aylangan.

“Sirdaryo viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarning tarixiy geografiyasi” deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafi **“Sirdaryo viloyati hududidagi moddiy yodgorliklarni hududlashtirish”** deb nomlangan.

⁴⁷ Кильчевская Э.В., Негматов Н.Н. Находки ювелирных изделий из Шахристана // Советская археология. – Москва, 1964. – №3. – С. 238–246.; Бердимуродов А.Э. Гемма инталия из Алмантепа // Общественные науки Узбекистана. – Ташкент, 1984. – №4. – С. 63–65.

⁴⁸ Грицина А.А. Археологические памятники Сырдарьинской области. – Ташкент, 1992. – Б. 42.

⁴⁹ Грицина А.А. Северная Уструшана в середине I тысячелетия до н.э. – начале XIII в. н.э. (Археолого-топографическое исследование). – Самарканд:АҚД, 1990. – С.78.; Грицина А.А. Городище Нурата // Известия музея истории культуры Узбекистана. – Вып. 27. – Самарканд, 1996. – С. 82–92.

⁵⁰ Хордадбех. Книга путей и стран / Пер. с араб., коммент., исслед., указат. и карты Н. Велихановой. – Баку, 1986. – С. 64.; Истахри. Китаб Масалик ал-мамалик // Материалы по истории киргизов и Киргизии. Вып. 1. – Москва, 1973. – С. 21.

Sirdaryo o'lkasi moddiy yodgorliklarini tarixiy-geografik joylashuviga qarab uch hududga ajratishimiz mumkin:

1. o'lkaning Ustrushona qismi moddiy yodgorliklari;
2. o'lkadagi Choch moddiy yodgorliklari;
3. oraliq zona moddiy yodgorliklari.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, shimoldan Choch, sharqdan Farg'ona, g'arbdan So'g'd tarixiy-madaniy o'lkalari bilan chegaralanib, o'ziga xos uchburchak hudud o'rtasida joylashgan Sirdaryo o'lkasida mavjud geografik o'rin va tabiiy iqlim sharoitidan kelib chiqib, o'lka moddiy yodgorliklari azaldan lokal xususiyatlarga ega xo'jalik yuritish asosida hayot shakllangan.

Arxeologik tadqiqotlar, Turkiston tog' tizmalaridan bosh olgan o'nlab soy va buloqlarning tog' va tog' oldidagi nisbatan chegaralangan havzalarida, ilk temir davridan boshlab o'troq dehqonchilik madaniyatiga asos solinganligidan dalolat beradi. O'lkada ilk shahar va manzilgohlar miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalarida Nijolisoy (Nurtepa) va Sho'rbuloqsoy (Eski Xovos) havzalarida paydo bo'lgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Sirdaryo viloyati hududidagi qadimgi va o'rta asr arxeologik yodgorliklarining mintaqa tarixini o'rganishdagi ahamiyati”** deb nomlangan. Viloyat hududidagi qadimgi davrga oid yodgorliklarni xronologik jihatdan 2 guruhga ajratish mumkin.

1- guruh: miloddan avvalgi VII - IV asrlarga oid Nurtepa, Xontepa, Sag'anaqtepa, Sag'anaqtepa 1. yodgorliklari. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarni o'rganishda ularni A. Makedonskiy yurishlari yo'nalishlarini aniqlash muammosiga jalb etadilar.

2-guruh: miloddan avvalgi IV- milodning III asrlariga oid yodgorliklar. Ular jumlasiga Eski Xovos yodgorligini kiritish mumkin.

Viloyat hududi o'rta asrlarda Ustrushona davlati tarkibida bo'lgan. Ustrushona ushbu davrda 18 ta rustoqlardan iborat bo'lgan. Sirdaryo o'lkasi hududidagi o'rta asrlar davri yodgorliklarini rustoqlar kesimida tahlil qilish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Sabot, Xovos va Shavkat rustaklari hududlarining ayrim qismlari bugungi viloyat hududiga qaragan. O'lkaning pasttekislik qismida joylashgan Sabot rustoqini Xo'jamushkentsoy havzasiga va uning markazini Kultepa qishlog'i o'rniga joylashtirish, hozirgi Sabot nomining saqlanib qolganligi arxeologik manbalar asosida mustahkamlangan fikr bo'lib, yozma manbalarda ko'rsatilgan Bunjikat va Zomin shaharlari oralig'idagi masofalarga mos tushishi ham bu fikrni isbotlaydi, deb o'ylaymiz. Sabot rustoqining markazi (Kultepa) So'g'ddan Farg'onaga va Xitoyga olib boruvchi katta savdo yo'lida Zomindan keyingi yirik manzilgoh edi. Sabot uchta yo'l chorrahasida joylashgani bois, shaharning A. Muhammadjonov tomonidan taklif etilgan etimologiyasi asosli ko'rinadi. U shahar nomini “Sebat” sifatida talqin yetib, bu “uch karvonsaroy” degan ma'noni anglatadi.

Ustrushonaning tekislik - cho'l rustoqlaridan biri bo'lgan Xovos rustoqi va uning markazi yozma manbalarda asosan karvon yo'llarining kesishgan joyida joylashgan Eski Xovost manzilgoh sifatida eslatib o'tiladi. Xovos rustoqining

markazi deb talqin qilinayotgan, karvon yo‘llari tutashuvchi muhim nuqtada joylashgan Eski Xovos yodgorligida olib borilgan tadqiqotlar bu yerda hayot miloddan avvalgi IV asrdan boshlab to 1953-yilgacha uzluksiz davom etganligidan dalolat bermoqda⁵¹.

Yozma manbalarda markaziy shahri Shavkat nomi bilan yuritiluvchi yana bir rustoq haqida ma‘lumot mavjud. Tadqiqotchilar markaziy shahar nomidan kelib chiqib, rustoq nomini ham aynan shu nom bilan atashni taklif qiladilar. Rustoq hududida Shavkat, Kurkat, Munchoqtepa, Shirin Urkand kabi yodgorliklar bo‘lgan. V. Tomoshek Shavkat shahrini Xovosdan shimolga, Chochga olib boruvchi yo‘lga joylashtiradi. N. Negmatov bu fikrni inkor etib, uni Nov va Kurkat oralig‘iga joylashtirishni taklif etadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Sirdaryo viloyati hududidagi arxeologik yodgorliklarning joylashuvi va tarixi hududning tabiiy-geografik sharoiti bilan uzviy bog‘liqdir. Tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning daryo vodiylari va qadimgi sug‘orish tizimlari bo‘ylab shakllangani aniqlanib, ularning tarixiy geografiyasi ilmiy asosda belgilab berildi.

XULOSA

Sirdaryo viloyatining qadimgi va o‘rta asrlar tarixini tahlil qilishga yo‘naltirilgan izlanishlar va o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi asosiy **xulosalar** shakllantirildi:

1. Markaziy Osiyo xalqlari tarixidagi muhim tarixiy voqealar bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar kechgan Sirdaryo viloyati hududining qadimiy davrda qanday nomlanganligi bugungi kunda fanda noma‘lumdir. Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan, shartli ravishda chap sohil o‘rta Sirdaryo havzasi hududi deb nomlangan bu hudud qadimiy ajdodlarimizning o‘ziga xos madaniyati haqida ma‘lumot berib keladi.

2. Nurtepadan topilgan sopol idishlar va uy-joylar konstruksiyasi tahlili bizga Yevroosiyo dashtlaridan dastlab Baqtriyaga, so‘ngra So‘g‘dga undan Farg‘ona tomon yo‘lga chiqqan chorvadorlarning bir qismi chamasi, Turkiston tog‘tizmasining o‘t-o‘larga boy yaylovlarni va soylar bo‘yidagi unumdor yerlarini o‘zlariga makon tutishgan va hududdagi dastlabki manzilgohlar va shaharlarga asos solishadi. Jumladan, Arrianda tilga olingan Sirdaryo bo‘yidagi yetti shahar va xavf tug‘ilgan paytda ularda yashirinib jon saqlagan qishloqlar aynan ular tomonidan barpo etilgan. Shunday manzilgohlar jumlasiga, Nurtepa, Sag‘anaqtepa, Sag‘anaqtepa I va katta ehtimol bilan Eski Xovos yodgorliklarini kiritish mumkin.

3. Aholisi Turkiston tog‘tizmasining tog‘oldi hududlari va soy bo‘ylarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qadimiy Sirdaryo manzilgohlarida miloddan avvalgi VI-IV asrlarga kelib, tabaqalanish jarayonlari kuchayib boradi. Viloyat hududidagi ilk davlatlar harbiy konfederatsiyaning so‘nggi bosqichi darajasida bo‘lib harbiy demokratiya shakli asosida tashkil

⁵¹ Mamirov O.O‘. Shimoliy-g‘arbiy Ustrushona moddiy va ma‘naviy madaniyati (Arxeologik materiallar asosida): Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ...dissert. avtoref. – Toshkent, 2024. – B.14.

topgan. Sirdaryo bo'ylarida kechgan urbanizatsion jarayonning ikkinchi bosqichi bu miloddan avvalgi III-II asrlarga to'g'ri keladi. Miloddan avvalgi III asrning ikkinchi yarmi va miloddan avvalgi II asr boshlarida viloyat hududiga shimoldan va shimoliy-sharqdan ko'chmanchi-chorvachilik bilan shug'ullangan xalqlar kirib kelishadi. Xovos tumanidagi Xontepa qadimiy yodgorligidan daxlarga tegishli sopol buyumlar topilganligi fikrimizning dalilidir. Shimoldan kelgan va o'zlarining qadimgi vatanlarida ko'plab shaharlar barpo etgan ko'chmanchi (daxlar)lar tomonidan bu yerlarda yangi yerlar o'zlashtiriladi, yangi shaharlar barpo etilib, o'lkada urbanizatsiyaning rivojlanish jarayoniga yangi turtki beriladi. Natijada Xovos tumanining g'arbiy qismlari ham aholi tomonidan o'zlashtiriladi. Sho'rbuloqsoyning quyi qismida Eski Xovos yodgorligi, Shirinsoyning quyi qismida esa Munchoqtepa yodgorligi qad ko'taradi.

4. O'lkaning janubiy qismi o'rta asrlarda Shimoliy Ustrushona tarkibida bo'lgan. Geografik nuqtai nazardan shimoliy Ustrushona, deb atalayotgan Ustrushonaning shimoliy qismi, Shahristonsoyning quyi oqimi, Xo'jamushkentsoy havzalari va hududning tekislik cho'l qismi (Mirzacho'l) arxeologik jihatdan hozirga qadar eng kam o'rganilgan madaniy voha sifatida qolmoqda. Vaholanki, qadimdan bir qancha madaniy o'lkalar chorrahasida joylashgan o'lka xalqlari moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos serqirra va boy bo'lib kelgan.

5. O'rta asrlarda viloyat hududi ikkita tarixiy-geografik viloyat tarkibiga kirgan. Viloyat hududining janubiy qismi o'rta asrlarda Ustrushona deb nomlanuvchi tarixiy-geografik viloyatning shimoliy qismi tarkibiga kirgan bo'lsa, viloyatning shimoliy hududlari, o'rta asrlarda Choch deb nomlangan tarixiy-geografik o'lka tarkibiga qaragan.

6. Sirdaryo viloyati hududining o'ziga xosliklaridan yana biri shundaki, bu yerda Ustrushona va Choch o'rtasida o'ziga xos oraliq xudud vazifasini o'tagan Mirzacho'l joylashgan. Mirzacho'lni kesib o'tish orqaligina bir vohadan ikkinchi vohaga borish mumkin bo'lgan. Biroq Mirzacho'lni kesib o'tish bir muncha og'ir kechgan. Zero, ushbu hududda suv bo'lmagan. Suvsiz esa karvonlarning qatnovini ta'minlash mumkin bo'lmagan. Shu sababli ham Mirzacho'lda bir-biridan taxminan 30 kilometr (karvonning bir kunlik yo'li) uzoqlikda uchta sardoba (Mirzarabot, Yakkasardoba, Yog'ochli sardoba) qurilgan. Viloyat hududidagi bizgacha yetib kelgan ta'bir joiz bo'lsa, eng qadimgi me'moriy obida – Sirdaryoning o'ziga xos tashrif qog'ozi, Yog'ochli sardobasi ana shunday inshoot hisoblanadi.

Sirdaryo viloyati hududi qadimda va o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining muhim qismida joylashgan bo'lgan. O'lka Samarqanddan sharqqa yo'nalgan yo'lining chorrahasida joylashgan. Undan bir tarmoq Xovosdan Kurkat orqali Xo'jand va Farg'onaga, ikkinchisi tarmoq qadim Chochga olib borgan. Miloddan oldingi IV asrning ikkinchi yarmidan to XIX asrgacha qadar Xovos qadim Farg'ona, Choch va So'g'dda savdo va harbiy harakatlar yo'nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan. Xalqaro savdo karvon yo'llari ustida joylashgan o'lkaning qulay tabiiy o'rni, bu yerdagi ichki va tashqi savdoning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

7. Oʻrta asrlarda Sirdaryodan Mirzachoʻlga Oʻrimboy ariq orqali suv chiqarilgan. 1870-yili injener, baron Aminov ham, 1917-yili tadqiqotchi Karavayev ham Oʻrimboy-oʻgʻiz arigʻini sohil boʻyidagi Choltoʻqay (qozoqcha nomi Shal-toʻgʻay) degan joy yaqinida Sirdaryodan suv olgan deb yozadilar. Aslida esa, hozirgi Tojikiston Respublikasi Soʻgʻd viloyati Spitamen tumani Qoʻshtegirmon qishlogʻi yaqinida Sirdaryodan suv olgan. Bunday xulosaga kelishimizga sabab, Sirdaryo faqat shu yerdagina yuqoriga koʻtariladi va u yerdan Mirzachoʻlga suv chiqarsa boʻladi. Ushbu ariqning izlari Guliston tumanidagi “Boyovut”, “Uch Qahramon” qishlogʻi hududlarida saqlanib qolgan.

8. Sirdaryo oʻlkasi hududi moddiy yodgorliklarini hududlashtirish oʻlkada ilk shahar va manzilgohlar miloddan avvalgi I ming yillik oʻrtalarida Basmandasoy, Shahrisonsoy, Xoʻjamushkentsoy havzalarida paydo boʻlganligini koʻrsatadi. Ushbu sugʻorish hududlari kichik vohalar moddiy yodgorliklarining joylashishi, tarixiy geografik nuqtai nazardan alohida olingan maʼmuriy hududlar shaklida tavsiflanishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, bir qancha ilmiy-nazariy xulosalarga tayangan holda quyidagi **taklif** hamda **tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy arxeologiya markazi bilan hamkorlikda Sirdaryo viloyatining oʻzbek davlatchiligi tarixida tutgan oʻrniga bagʻishlangan darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratish;

2. Oʻzbekiston tarixi va Sirdaryo viloyati madaniyati sanʼati tarixi muzeylarining fondlarini Sirdaryo viloyati tarixi aks etgan maʼlumotlar bilan boyitish;

3. Ijtimoiy tarmoqlarda Sirdaryo viloyati tarixiga bagʻishlangan saytlar yaratib, uni arxeologiya va tarix sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikda maʼlumotlar bilan toʻldirib borish maqsadga muvofiqdir.

4. Sirdaryo viloyati hududidagi qadimgi va oʻrta asr davri manzilgohlarini “google map” dasturida lokatsiyalarini aniqlash va ushbu manzilgohlarni kompyuter grafikasi yordamida 3D tasvirlarini qayta rekonstruksiya qilish orqali ichki hamda tashqi sayyohlarni jalb etish orqali turizmni rivojlantirish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/31.12.2020. Tar.60.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАЪРУФОВ ШЕРЗОД КАМИЛ УГЛИ

**ИСТОРИЯ СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ДРЕВНОСТИ И
СРЕДНИЕ ВЕКА**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2025

Тема докторской диссертации зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/Tar1675

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net/uz)

Научный руководитель:

Кудратов Салижан Сулайманович
кандидат исторических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Хасанов Муталибжон
доктор исторических наук, профессор

Гойибов Бобур Сабирович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Национальный университет Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится « 29 » 11 2025 г. в 10.00 часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней по историческим наукам № DSc.03/31.12.2020. Tar.60.01. (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом № 129. Здание исторического факультета Андижанского государственного университета, 1-этаж, 108-аудитория. Тел.: (0374) 225-73-21; факс: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu_info@edu.uz. Андижанский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирована за № 2171, А). (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом № 129. Главный корпус). Тел: (0374) 223-84-33; факс: (0374) 223-88-30).

Автореферат диссертации разослан « 13 » 11 2025 года.

(протокол реестра за номером 41 от « 12 » 11 2025 года).



[Handwritten signature]

Р.Т. Шамсутдинов
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней
д.и.н., профессор

[Handwritten signature]
М.О.Алихожиев
Заместитель секретаря научного
совета по присуждению ученых
степеней, к.и.н., доцент

[Handwritten signature]
О.К.Комилов
Председатель научного семинара
научного совета по присуждению
ученых степеней, д.и.н.
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и необходимость темы диссертации. Под воздействием процессов глобализации, происходящих в XXI веке, изучение древнейшей истории человеческого общества, в частности его этнокультурного, социально-экономического развития на основе материальных и письменных источников, стало одной из важнейших научных задач. В связи с этим во всем мире усилилось внимание к исторической реконструкции прошлого на базе материальных источников. Подобно другим регионам республики, на территории Сырдарьинской области также ведутся новые археологические исследования, в ходе которых получены и опубликованы многочисленные научные новации, что свидетельствует об актуальности избранной темы.

В ведущих университетах мира, а также в специализированных центрах исторических и археологических исследований интенсивно развиваются микроисторические направления, ориентированные на всестороннее изучение культурного, экономического и социального развития древних народов. В частности, исследователи Оксфордского, Кембриджского, Гарвардского, Токийского университетов, Московского государственного университета имени М.В. Ломоносова, Археологического института в Майнце (Германия) и Парижского Центра восточных культур разрабатывают новые методологические подходы на основе комплексного анализа письменных источников, археологических материалов и геоинформационных технологий. Результаты этих исследований позволяют выявить многочисленные ранее неизвестные сведения о древних поселениях, их хозяйственной организации, религиозных верованиях, языке и культурных традициях.

Территория Сырдарьинской области в древности и в средние века располагалась на одном из важнейших участков Великого шёлкового пути. Торговые караваны, направлявшиеся из Средиземноморья через Бухару и Самарканд к древнему Китаю, непременно проходили по этой территории. Кроме того, торговые пути, ведущие в древний Чач (Ташкент), также пролегли именно через земли современной области. На этой основе территория Сырдарьинской области в древности и в средние века служила связующим звеном между древними историко-культурными регионами нашей страны - Согдом (Самарканд), Даваном (Фергана) и Чачем (Ташкент). Поэтому без глубокого изучения истории Сырдарьинской области невозможно в полной мере понять прошлое соседних древних областей — Согда, Ферганы и Чача, поскольку они были взаимосвязаны между собой через Сырдарью. Как подчеркнул Президент Ш. М. Мирзиёев, «несмотря на то, что Сырдарьинская область как административно-территориальная единица в составе Республики Узбекистан является сравнительно молодой, эта земля обладает многотысячелетней историей и богатым культурным

наследием»¹. По нашему мнению, ряд до сих пор не разрешённых проблем, связанных с историей упомянутых регионов, может быть решён именно посредством детального исследования истории Сырдарьи.

Правовые документы, изданные Правительством нашей Республики, в частности, Указ Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»², Указ Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года № УП -6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 декабря 2018 года № ПП-4068 «О коренном совершенствовании деятельности в сфере охраны объектов материального культурного наследия»³, а также Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № 2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук Республики Узбекистан, организации, управления и финансирования научно-исследовательских работ» и от 21 сентября 2019 года № 792 «О коренном совершенствовании археологических исследований»⁴, — определяют задачи, выполнению которых в определённой степени способствует данное исследование.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики — I. «Формирование системы инновационных идей и механизмов их реализации в процессе социального, правового, экономического, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Археологическое изучение территории Сырдарьинской области условно можно разделить на два этапа:

1. период с конца XIX — начала XX века до 1991 года, то есть до года обретения независимости, когда проводились археологические разведки и исследования;

2. период, охватывающий археологические исследования, осуществлённые после обретения Республикой Узбекистан государственной независимости.

Изучение памятников древней эпохи на территории Сырдарьинской области началось во второй половине XIX — начале XX века и было связано с

¹ Мирзиёев Ш. Сахро бағрида мўъжизалар яратаётган эл (Сирдарё вилояти сайловчилар вакиллари билан учрашувдаги нутк) // Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. — Тошкент: Ўзбекистон, 2017. — Б. 375–376.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni [Elektron resurs]. — URL: <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021> (Дата обращения: 01.05.2021);

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 декабрдаги ПҚ-4068-сон “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан яхшилаш тўғрисидаги” қарори [Электрон ресурс]. — URL: <https://lex.uz/docs/4262171?ONDATE=01.03.2022%2001> (Дата обращения: 01.03.2022).

⁴ Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги қарори [Электрон ресурс]. — URL: <https://lex.uz/docs/4524476> (Дата обращения: 15.04.2025).

деятельностью любителей-коллекционеров и краеведов-исследователей. Хотя ими не проводились непосредственные археологические раскопки, в их трудах содержатся первые сведения об отдельных памятниках, в частности об Эски-Ховосе (Старый Ховос)⁵. Особый интерес у данных исследователей вызывали сардобы Мирзачульского региона. Известный археолог М. Е. Массон специально изучил эти сооружения и представил о них подробные сведения. Он также локализует холм, расположенный вблизи Хавосской железнодорожной линии, как средневековый Эски Хавас, а христианское селение Винкерт — как соответствующее памятнику Нурата в пределах области⁶.

Изучение памятников на территории Сырдарьинской области на научной основе началось в 40-е годы XX века. В 1956 году археологический отряд «Ходжент–Уструшана» провёл исследования ряда памятников, расположенных в верховьях долины Ходжамушкентсая⁷. В 60-е годы XX века В. А. Нильсен осуществил ограниченные по объёму археологические раскопки на памятнике Нурота⁸. В дальнейшем, в 70-е годы XX века, А. И. Билолов, изучая историю ирригации Уструшаны, уделил особое внимание исследованию ряда археологических объектов, расположенных на территории Сырдарьинской области⁹.

В период 1970–1990-х годов на территории Сырдарьинской области научные исследования проводились сотрудниками Института археологии Академии наук Республики Узбекистан — Р. А. Бадаховым¹⁰, У. А. Алимовым¹¹, М. Х. Пардаевым¹², А. А. Грициной¹³, Л. М. Сверчковым¹⁴ и

⁵ Лыкошин Н. Очерк археологических изысканий в Туркестанском крае до учреждения кружка любителей археологии. – Ташкент: Среднеазиатский вестник, 1896. – С. 9.

⁶ Массон М.Е. Проблема изучения цистерны – сардоба. – Ташкент, 1935. – С. 16–21.

⁷ Негматов Н.Н., Хмельницкий С.Г. Средневековый шахристан. – Душанбе, 1966. – С. 195.

⁸ Нильсен В.А. Становление феодальной архитектуры Средней Азии (V–VIII вв.). – Ташкент, 1966. – С. 213.

⁹ Билолов А.И. Из истории ирригации Уструшаны. – Душанбе, 1980. – С. 28–44.

¹⁰ Рахимов С.Р. Годовой отчет Джизакского археологического отряда Института археологии АН УзССР за 1970 г. – Архив Министерства культуры Республики Узбекистан. – А.3337/R27. Фонд 6, опись 1, дело 11, листы 5–6; Бадахов Р.А. Отчет о полевых работах Джизакского археологического отряда в сезоне 1982 г. – Самарканд, 1982. // Архив Института археологии Академии наук Республики Узбекистан, фонд 6, опись 1, дело 13а, листы 6–7.

¹¹ Алимов У.А. Отчёт о полевых работах Джизакского археологического отряда за 1983 г. – Самарканд, 1985. // Архив Института археологии Академии наук Республики Узбекистан, фонд 6, опись 1, дело 7, лист 12.

¹² Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Ғарбий Уструшонадан топилган зардуштий қавм излари // Ўзбекистон археологияси. – №1(2). – Самарканд, 2011.; Пардаев М.Х. Отчёт об археологическом изучении памятников истории материальной культуры в зоне орошения и освоения земель Кизильинского массива за 1985–1987 гг. – Самарканд, 1987. // Архив Института археологии Академии наук Республики Узбекистан, фонд 6, опись 1, дело 5, лист 16.; Пардаев М.Х. 1992 йил археология қазув таджикотлари тўғрисида Жиззах отряди ҳисоботи. – Самарканд, 1993. // Архив Института археологии Академии наук Республики Узбекистан, фонд 6, опись 1, дело 29, лист 16.

